



ABDURAUF FITRAT VA JADID MATBUOTI: MILLATNI UYG'OTISH YO'LIDAGI SA'Y-HARAKATLARI

Narzulloyeva Dilfuza Bahriiddin qizi

shakhnarzoullayev@gmail.com

Buxoro davlat universiteti, xorijiy tillar fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Abdurauf Fitratning jadid matbuoti orqali millatni uyg'otish yo'lida amalgalashuviga oshirgan sa'y-harakatlarini o'rghanishga bag'ishlangan. Fitratning maqolalari, asarlari va u tahrir qilgan gazeta va jurnallar orqali milliy ongni rivojlantirish, ta'limni modernizatsiya qilish hamda ijtimoiy adolatni targ'ib qilishga qaratilgan g'oyalari tahlil qilinadi. Maqolada Fitratning jadid matbuotidagi faoliyati uning millatni ma'rifatparvarlik va taraqqiyot yo'liga chorlashdagi asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, maqola Fitratning matbuot vositasida milliy o'zlikni anglashni kuchaytirish, o'zbek tili va madaniyatini targ'ib qilishdagi xizmatlarini yoritadi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik harakati, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy adolat va tenglik, milliy gazeta, erkinlik va adolat g'oyalari.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению усилий Абдурауфа Фитрата по пробуждению нации посредством новой прессы. Анализируются идеи Фитрата, направленные на развитие национального самосознания, модернизацию образования и продвижение социальной справедливости через его статьи, произведения, а также редактируемые им газеты и журналы. В статье подчеркивается деятельность Фитрата в современной прессе как один из главных факторов призыва им нации на путь просвещения и прогресса. В статье также подчеркивается вклад Фитрата в укрепление национальной идентичности и продвижение узбекского языка и культуры через прессу.



Ключевые слова: Идеи движения джадидов, социальный прогресс, социальная справедливость и равенство, национальная газета, свобода и правосудие.

Abstract: This article is devoted to the study of Abdurauf Fitrat's efforts to awaken the nation through the new press. It analyzes Fitrat's ideas aimed at developing national consciousness, modernizing education, and promoting social justice through his articles, writings, and the newspapers and magazines he edited. The article highlights Fitrat's activities in the modern press as one of the main factors in his calling the nation to the path of enlightenment and progress. The article also highlights Fitrat's contribution to strengthening national identity and promoting the Uzbek language and culture through the press.

Keywords: The ideas of the Jadid movement, social progress, social justice and equality, a national newspaper, freedom and justice.

Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat o‘z zamonining yetakchi adiblardan biri sifatida tanilgan bo‘lib 1886-yil Buxoroda ziyoli oilasida tug‘ilgan. U o‘zining ijodiy faoliyatida Buxoro va Turkistonagi maorif, madaniyat va ijtimoiy hayot masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Fitrat 1909-yilda Istanbulga o‘qishga borib, u yerda turli fikrlar va g‘oyalar bilan tanishdi. U Istanbul dorilfununida tahsil olgan davrda zamondoshlari bilan birgalikda “Buxoro ta’limi (umumiyl) maorif jamiyati” ni tuzdi. Bu uyushma Buxoro ta’limini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshirdi. Uning dastlabki asarlari, jumladan, “Sayha” (“Chorlov”) to‘plami 1911-yilda chop etildi. Bu to‘plamda Fitratning adabiy qobiliyati va ma’rifatparvarlik g‘oyalari namoyon bo‘ladi. “Sayyohi hindi” va “Munozara” kabi asarlar ham unga nisbatan yuqori baholandi va ularning badiiy jihatlari hamda ijtimoiy mazmuni e’tiborga molikdir. Uning “Adabiyot qoidalari”, “Eski o‘zbek adabiyoti namunalari” va “Aruz haqida” kabi asarlari nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham adabiyotshunoslikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Uning Umar Xayyom, Firdavsiy, Navoiy va Bedil haqidagi tadqiqotlari



o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish bilan birga, bu buyuk shoirlar va ularning asarlarini chuqur tahlil qilish imkonini yaratdi. Fitratning ilmiy kuzatuvlari, shuningdek, o‘z davrida adabiy tanqidning rivojlanishiga ham hissa qo‘shti. Fitratning asarlari nafaqat o‘zbek tilida yozilgan adabiyotlarni o‘rganishga yordam beradi, balki umuman Sharq adabiyoti tarixini to‘liqroq anglashga xizmat qiladi.

Jadidchilik harakati Turkiston hududida o‘ziga xos ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Bu harakat, asosan, musulmon jamiyatining modernizatsiyasi, ta’lim tizimini yangilash va xalqni savodsizlikdan chiqarish maqsadida tashkil etilgan edi. Jadidlar ta’limda yangi metodlarni joriy qilishga, o‘qituvchilarni tayyorlashga va yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga intilishdi. Ushbu jarayonda matbuot alohida ahamiyat kasb etdi. Jadidlar gazeta va jurnallar orqali o‘z g‘oyalalarini keng ommaga yetkazdilar, muammolarni ko‘tardilar va xalqqa yangiliklar haqida ma’lumot berdilar. “Taraqqiy”, “Sadoyi Turkiston”, “Hurriyat”, “Najot” va “Oyina” kabi nashrlar, nafaqat ma’rifatparvarlik g‘oyalalarini tarqatishda, balki milliy ongni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynadi. “Taraqqiy” gazetasi Turkistondagi ilk milliy gazeta sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. 1906-yil 14-iyunda Tatar taraqqiyparvari Ismoil Obidiy muharrirligida chop etilgan bu gazeta, nafaqat o‘z davrining muhim voqealarini yoritgan, balki Turkiston musulmonlarini birlikka chaqirgan. Gazetaning kirish maqolasi Ismoil Obidiyning “Toshkent 14-iyun” maqolasi bo‘lib, unda u xalqni o‘zaro nizolarni tugatishga va birlashishga undaydi. Gazetaning shiori “Najot: maslakda sabot; to‘g‘rilikni ijobat” deb belgilangan bo‘lib, bu ham uning maqsadidan kelib chiqadi. Maqlada u millatning kelajagi ilm-u ma’rifatga bog‘liqligini ta’kidlaydi va demokratik islohotlardan faqat ma’rifatli millatlar foydalana olishini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, gazetaning dastlabki sonida Munavvar qori Abdurashidxonovning “Bizning jahl, jahli murakkab” maqolasi ham e’lon qilingan. Ushbu maqola Turkiston xalqlarining an’anaviy turmush tarzini tahlil qilib, jamiyat taraqqiyotiga to‘sinqinlik qilayotgan illat va bid’atlarni tanqid qiladi. Munavvar qori xalqni ushbu illatlarga qarshi kurashishga chaqiradi va uning g‘oyalari shu paytgacha



ilg‘or fikrlovchilar tomonidan hurmat bilan eslanadi. “Taraqqiy” gazetasi Turkistonning madaniy hayotida yangi sahifa ochgan va mahalliy aholi o‘rtasida ilm-fan va madaniyatga bo‘lgan qiziqishni oshirishda muhim rol o‘ynagan. Shu bilan bir qatorda, “Najot” gazetasining tarixi va uning shiori “Musovvat, hurriyat, adolat” Turkiston musulmonlari uchun muhim bir madaniy va siyosiy nashr bo‘lganini ko‘rsatadi. Munavvar qori Abdurashidxonovning muharrirlik qilishi va gazetaning Chor hukumati zulmidan qutilish maqsadida yaratilgani, uning o‘z davrida qanday ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi. Gazetada keltirilgan “Xitobnama”da musulmonlarning birligi va sinflararo farqlarning zaifligi ta’kidlanishi, bu jamiyatda ijtimoiy adolat va tenglikni rivojlantirishga qaratilgan bir tashabbus sifatida ko‘rilishi mumkin. Shuningdek, gazeta nafaqat siyosat, balki madaniyat va san’at sohalarida ham faoliyat yuritgan. Ushbu gazeta Turkiston musulmonlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o‘ynagan va ularning kelajagi uchun umid manbayi bo‘lgan. Fitrat esa jadidchilik harakatining eng faol vakillaridan biri sifatida nafaqat matbuotda faoliyat yuritdi, balki adabiyot va san’at sohalarida ham o‘z izini qoldirdi. U o‘z asarlari orqali yosh avlodni tarbiyalashda, ularning fikrini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Fitratning ijodi va faolligi jadidchilik harakatining rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi va u Turkiston tarixida yodgorlik sifatida qolib ketdi.

Fitrat 1917-yil fevral inqilobidan keyin “Hurriyat” gazetasini tashkil etib, o‘zining ijodini va fikrlarini xalqni istiqlol uchun kurashga da’vat etishga qaratdi. “Hurriyat” gazetasida e’lon qilingan “Yurt qayg‘usi” she’ri va boshqa asarlarida u Turkistonning erkinligi yo’lidagi kurashni kuchli ifodaladi. U she’rida: “Men sen uchun tug‘ildim, sen uchun yasharman, sening uchun o‘larman, ey turkning muqaddas o‘chog‘i!”, - deb hayqiradi, bu esa uning milliy maqsadlariga bo‘lgan chuqur sadoqatini ko‘rsatadi. Fitratning dramalari ham milliy mustaqillik mavzusini chuqur yoritgan. Abdurauf Fitrat o‘zbek tilshunosligi va maorifi sohasida katta xizmatlar qilgan olimlardan biridir. U 1921-1923 yillarda Respublika Maorif xalq noziri sifatida faoliyat yuritgan. 1923-1924 yillar davomida Moskvadagi Sharq tillari institutida va Peterburg dorilfununida ma’ruza



o‘qigani uning ilmiy faoliyatini yanada rivojlantirdi. Fitratning “O‘zbek tili” darsligi va “O‘zbek tili sarfi” (grammatikasi) kitoblari 1925-1930 yillarda besh marta chop etilgan. U, shuningdek, “Tilimiz”, “O‘zbekcha til saboqlari” va “Imlo konferensiyasi munosabati bilan” kabi maqolalar yozgan. Bu ishlari orqali u o‘zbek tilining rivojlanishiga katta hissa qo‘shti.

Abdurauf Fitrat o‘z ilmiy ishlari uchun o‘zbek olimlari orasida birinchilardan bo‘lib professor unvonini qo‘lga kiritdi, bu esa uning ilmiy maqomi va tajribasini yana ham oshirdi. “Qon”, “Begijon”, “Temur sag‘anasi”, “O‘g‘izg‘on”, “Abo Muslim”, “Hind ixtilochilari” va “Chin sevish” kabi asarlarida esa xalqning ozodlik va erkinlikka intilishlarini tasvirlagan. Bu asarlar orqali Fitrat bir millatning g‘ayratli himoyachisi sifatida ham tanilgan. U o‘z asarlari orqali turk xalqlarining madaniyati va tarixi bilan bog‘liq masalalarni ko‘tarib chiqdi va bu borada o‘zining munosabatlarini ochiq bayon etdi. U milliy o‘zlikni uyg‘otish g‘oyasini faol ilgarilagan va bu g‘oya orqali xalqni birlashishga, o‘z huquqlari va erkinliklari uchun kurashishga chaqirgan. Fitratning maqolalari ko‘pincha “Sadoyi Turkiston” va “Hurriyat” gazetalari sahifalarida e’lon qilinishi, uning fikrlarini keng ommaga yetkazishga yordam berdi. U o‘z asarlarida zamonamizning dolzARB masalalariga e’tibor qaratib, Turkiston xalqining taqdiriga ta’sir etuvchi muhim masalalarni oolib berdi. Shuningdek, uning she’r va publisistik asarlari millatning ma’naviyati va madaniyatini rivojlantirishda ham ahamiyatga ega bo‘lgan.

Fitrat o‘z maqolalarida xalqni anglash, bilim olish va mustaqil fikrlashga chorlagan. Uning maqolalarida quyidagi asosiy mavzular ko‘tarilgan:

- 1. Savodxonlik va ta’lim:** Fitrat xalqni savodli qilishni millatning kelajagi uchun asosiy shart deb bilgan. U yangi usuldagи maktablarni tashkil etish, darsliklarni isloh qilish va ona tilida ta’lim berish tarafdoi edi.
- Fitratning “Yangi maktablar va ularning zarurati” kabi maqolalari bu masalani chuqur tahlil qilgan.



- 2. Ijtimoiy adolat va milliy uyg‘onish:** Fitrat milliy uyg‘onish g‘oyasini ilgari surib, xalqning huquqlari va erkinliklari uchun kurashgan. U o‘z maqolalarida Turkistonni mustamlaka tuzumining salbiy oqibatlaridan qutqarish yo‘llarini izlagan.
- “Hurriyat” gazetasida e’lon qilingan maqolalarida mustamlakachilikka qarshi kurash g‘oyalari aks etgan.
- 3. Din va islohotlar:** Fitrat diniy qadriyatlarni saqlagan holda jamiyatda islohotlarni amalga oshirishga chaqirgan. U islom dinining taraqqiyotga zid emasligini, aksincha, uni rivojlanish uchun asos deb bilgan.
- U “Oyina” jurnalida dinni to‘g‘ri talqin qilish va uning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini tushuntiruvchi maqolalar e’lon qilgan.
- 4. Milliy til va madaniyatni rivojlantirish:** Fitrat o‘z maqolalarida ona tilini rivojlantirish va milliy madaniyatni saqlash muhimligini ta’kidlagan. U tilni millatning o‘zligini ifodalovchi eng muhim omil sifatida ko‘rgan.

Shu bilan bir qatorda, “Hurriyat” gazetasi jadidlarning eng nufuzli nashrlaridan biri edi. Ushbu gazeta o‘zining ilg‘or fikrlarni targ‘ib qilishi va xalqni uyg‘otishga xizmat qilishi bilan ajralib turgan. Gazetaning birinchi muharriri Akobir Shohmansurov, keyinchalik esa Mardonqul Shohmuhammadzoda va Abdurauf Fitrat kabi mashhur shaxslar uning boshqaruvini olib borgan. Ushbu mualliflar o‘z maqolalarida xalqning ma’naviyati, ta’limi va ijtimoiy hayoti haqida keng fikrlar yuritgan. Mardonquli Shohmuhammadzodaning “Ta’mini istiqbol” maqolasidagi maqsad xalqning ma’naviy kamoloti va ilm-fan rivojiga xizmat qilishni belgilashi juda muhimdir. Sadriddin Ayniy esa “Tashakkur” maqolasida gazeta orqali xalqni yangilanish va ozodlikka chaqirishi, inqilob natijasi sifatida baholanishi hamda umidlarni ifodalashi bilan ahamiyatlidir. Bundan tashqari, gazetaning Buxoro amirining islohotlariga oid maqolalari ham zamonning ijtimoiy-siyosiy vaziyatini yoritishga qaratilgan edi. “Hurriyat” gazetasi aynan shu tarzda o‘z davrining eng nufuzli matbuot vositalaridan biriga aylangan bo‘lib, turli ijodkorlardan maqolalar e’lon qilish orqali keng auditoriyani qamrab olgan. Bu



jurnalistik faoliyat nafaqat o‘z zamondagi masalalarini ko‘tarib chiqdi, balki keyingi avlodlarga ham ta’sir ko‘rsatdi. “Hurriyat” gazetasi Turkistonda ma’rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga zamin yaratdi va bu jarayonda jamoat fikrini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitratning jadid matbuotidagi faoliyati Turkiston xalqining milliy uyg‘onish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutdi. U o‘zining maqolalari, she’rlari va publitsistik asarlari orqali xalqni savodxonlikka, ilm-fanga va milliy o‘zlikni anglashga undadi. Fitrat “Hurriyat” va “Sadoyi Turkiston” kabi gazetalar sahifalarida mustamlakachilikni fosh etgan, erkinlik va adolat g‘oyalarini targ‘ib qilgan, milliy qadriyatlarni asrashga chaqirgan. Fitratning fikricha, matbuot xalqni ma’rifat va taraqqiyot sari boshlovchi eng muhim vosita edi. U matbuot orqali mustamlakachilik siyosatining salbiy oqibatlarini ochib bergen va milliy uyg‘onish yo‘lida birdamlik, bilim va ma’rifatning o‘rni naqadar muhim ekanligini ko‘rsatgan.

Bugungi kunda Fitratning ijodi va faoliyati nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki milliy taraqqiyot uchun muhim saboq bo‘lib xizmat qiladi. Uning jadid matbuotidagi sa’y-harakatlari o‘zbek xalqining milliy uyg‘onishida beqiyos rol o‘ynab, mustaqillik g‘oyalarining shakllanishiga asos yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boltaboeva H. “Fitratning xorijiy publisistikasida ijtimoiy-siyosiy masalalarining aks etishi”. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences ISSN 2181-1784. P 130-139.
2. Safarova M. “Abdurauf fitratning maorifi va ma’rifatini rivojlantirish borasidagi hatti harakatlari”. Innovative developments and research in education. P 33-36.
3. Azimova N. “Fitratning Sharq siyosati asari”. Golden brain ISSN: 2181-4120. P 196-201.



4. Isomiddinov Y. (2023). “Abdurauf Fitrat ma’naviy merosining iqtisodiy va ijtimoiy mohiyati”. Sustainable economic development of regions: international and national concepts - International scientific - practical conference. P 970 - 978
5. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. I-Jild. She‘rlar, nasriy asarlar va dramalar. Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboev. T.: —Ma’naviyat, 2002.
6. Keldiyeva Sh. Madolimova R. “Abdurauf fitratning jadidchilik harakatidagi roli va uning milliy uyg‘onishga qo‘shgan hissasi”. Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnalı ISSN: 2181-2624. P 181-182.
7. <https://jadid.uz/jadids/abdurauf-fitrat>
8. <https://bilimlar.uz/fitrat>